

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISHDA MUSTAQIL ISHLARDAN FOYDALANISH**Hasanova Maftuna***Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistri*

Annotatsiya: *Hozirgi davrda jamiyatimizda har bir shaxsning o'zining ijodiy fikriga ega bo'lishi, o'zining hayoti uchun muhim bo'lgan qarorlarni mustaqil o'z xohish istaklaridan kelib chiqqan holda tanlashi, o'zi sevgan va o'zi shu ishni qila olishiga kelajakda yutuqlarga erisha olishi uchun maqsadlarini to'g'ri qo'ya olishi, oldindan ishlarini puxta rejalashtira olishi uchun hozirgi kunda yoshlarni bolalik davridan ya'ni boshlang'ich sinfdaligidanoq ularni ijodiy fikrlashga shu bilan birga mavzu yuzasidan keng fikrlashga asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich o'rgatib borishlik lozim. Bugungi kunda bolalarni ijodiy fikirlashini rivojlantirish maqsadida boshlang'ich ta'lim darsliklarini qayta ishlanganini misol qilib keltirishim mumkin.*

Tayanch so'zlar: *ijodiy fikrlash, mustaqil ishlar, erkin fikrlash, DTS, ona tili ta'limi, izchillik, ta'lim samaradorligi.*

Аннотация: *В настоящее время в нашем обществе, в нашем обществе, у каждого человека есть свое творческое мнение, любит решения, которые важны для его жизни из желаний его жизни самостоятельно, и делать это сам. В настоящее время, чтобы обеспечить их Преимущество достижения будущего, молодых людей, чтобы обеспечить свое преимущество для планирования своей работы заранее, молодые люди постепенно постепенно и думают об этой теме.*

Ключевые слова: *творческое мышление, независимое произведения, свободное мышление, DTS, родной язык и эффективность материнского языка.*

Annotation: *At present, in our society, in our society, each person has his own creative opinion, loves the decisions that are important for his life from the desires of his life independently, and do this himself. Currently, in order to ensure their advantage to achieve future, young people in order to ensure their advantage to planned their work in advance, young people are gradually gradually and to think about the topic. It is necessary to teach the stage. I can give an example of the processing of primary education textbooks to develop children's creative thinking.*

Key Words: *Creative thinking, independent works, free thinking, dts, mother tongue, and efficiency of maternal language.*

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlar Respublikaning ravnaqini ta'minlaydigan istiqboldagi rejalarini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qaror, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori⁴ bilan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta'lim fanlari bo'yicha "Davlat ta'lim standarti" tasdiqlandi. Boshlang'ich sinflarni

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

o'qitishda ham aynan shu standartga tayaniladi. Ushbu standartda o'quvchilarning ta'lim-tarbiya olish masalalari va vazifalari tarkibiga mustaqil ishlash masalalari ham kiritilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"⁵ degan da'vatlari ta'limning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'z fikrini og'zaki va yozma ifodalay oladigan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mustaqil va ijodiy fikrlash, boshqalarning fikrlarini tushuninish qobiliyatini rivojlantirishdir. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da mustaqil fikrlaydigan qat'iyatli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ularning ijtimoiy faolligini oshirish"⁶ga qaratilgan vazifani o'z zimmasiga yuklamoqda. Shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirish jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash. Ona tili darslarining ta'sirchanlik darajasi va o'quvchilarning ona tilining boyligi, uning imkoniyatlarini, ijodiy fikrlashni qay darajada o'zlashtirganligi va bu ijodiy tafakkurni o'zlashtirish darajasi bilan belgilanadi.

Ko'p tilni o'zlashtirgan kishi, o'z nutqini butun dunyosini yaxshilaydi. Har bir yosh bosqichi nutqini rivojlantirish uchun yangi narsani olib keladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asoslarini boshlang'ich sinflarda egallaydi. "Ijodiy fikrlash birinchi navbatda ko'pchilikning sa'y-harakatlari bilan rivojlangan tilni qo'llash jarayoni va jamoat mulki hisoblanadi" - (N.I. Jinkin). Bu yerda bolalar erkin fikr yurita oladi, hayoliga kelgan fikr bilan o'rtoqlashadi, biror mustaqil topshiriq bersangiz 30 ta boladan 30 ta fikr va shuncha dunyoqarsh mavjudligini guvohi bo'lasiz. Ular ijodiy fikr yuritish, tilning yozma versiyasi va nutqni yaxshilash zarurligiga birinchi marta duch kelishadi. Ijodiy fikrlashning o'z vaqtida mahoratli o'zlashtirilishi bolaning to'liq qiyofasini shakllantirish, maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish va mehnat faoliyati uchun muhimdir.

Oxirgi kuzatishlarga qaraganda, bolalarga berilayotgan bilimga e'tibor pasayib ketayotganligi, darslar reja asosida to'liq o'tilmayotganligi, o'tilgan darslar ham talabga to'liq javob bermasligi, sinfdan o'quvchilarni sonining yuqoriligi, bilim sifatini tushib ketayotganligini hisobga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda hususiy tashkilotlarni ko'payib borishi, davlatimiz tomonidan tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktablar sonini ko'payib borishi va bu maktablarda sinflarda o'quvchilarning soni 25 tadan oshmasligi, o'qituvchi zimmasidagi ortiqcha mas'uliyatlarni olib tashlanganligi, unga ketadigan vaqt evaziga bolalar bilan mustaqil ishlashga sarflanishini yo'lga qo'yish, 2021-2022- o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinflar uchun yangi an'anaviylikdan chetga chiqqan holda ishlab chiqilgan darsliklar aynan bugungi kunda ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlarning jadallik bilan olib

⁵Mirziyoyev Sh.M. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". – 28.01.2022 yildagi PF-60-son

⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

borilayotganligidan dalolat beradi. O'quvchilarni ko'proq ijodiy fikrlashga o'rgatadigan, dunyoqarashini shakillantiradigan, nutqini aniq, tinniq, ravon qilib rivojlantiradigan darslikda berilgan matnlar ustida ishlash, ularni o'qish, tahlil qilish bolalarni fikr mulohazalarini eshitish, matn yuzasidan mustaqil ishlarni tashkil qilish bolalarda keng fikrlashga juda katta yordam beradi. O'quvchilarning bilimlarini egallash va mustaqil fikrlashga o'rgatish, avvalambor, mustaqil ishlarni bajarish, oldida turgan muammo va masalalarning yechimini topish jarayonida shakillanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi usullardan yana biri – mustaqil ish metodidir. Mustaqil ish metodi nafaqat bolarni balki ta'lim sohasida keng qo'llaniladigan o'quvchilarning mustaqil ishlari ta'lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Metodist olimlar mustaqil ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Bundan tashqari reproduktiv mustaqil ishlar ham mavjud bo'lib, o'quvchilarning avval olgan bilimlarini amalda qo'llashni nazarda tutadi.

Har bir bolada turli xil iste'dodlar mavjud. Albatta, hamma bolalarda ham tasavvur qilish, ixtiro qilish qobiliyatiga ega emaslar. Shunga qaramay, har bir kishining iste'dodlari ishlab chiqilishi mumkin. Ularning rivojlanishi uchun rag'batlantirish kerak. Mustaqil ishlarni tashkil qiningach, natijalar olingandan keyin bolalarni rag'bartlantirish o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. O'ziga ishonchi ortgach, o'ziga nisbatan yuqori baho bera olishi, uni turli munozarali davralarda o'z fikrini bemalol ayta olishiga zamin yaratadi. Boshlang'ich sinf bolalarini ayniqsa o'z fikrlarini bildirgan vaqtda to'g'rimi, noto'g'rimi unga “sen noto'g'ri gapirayapsan, joyinga o'tir” deyish yaramaydi. Fikrlar eshitilinish bo'lingach ularni fikrini yanada tiniqlashtirish maqsadida ularga yana qo'shimcha ma'lumotlar berib xulosalaniladi. Shunda bolada ikkilanish, tortinish o'z fikrini aytyshdan qo'rqish kabi tuyg'ularni bartaraf qilgan holda bolani ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishimiz mumkin. Bolalar bilan munosabat o'rnatish ularga ta'lim tarbiya berish nihoyatda nozik masala bo'lib, birgina noto'g'ri qadam bir bolakayning ko'nglidagi endi nish urib chiqayotgan qobiliyatini o'ldirib qo'yishligi mumkin.

O'quvchilarning ijodiy fikrlashlari o'stirish uchun mustaqil ishlar ona tili darslarining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, o'quvchilarning ongli ravishda faollik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan grammatik vazifalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y.,6-son, 70-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. – 28.01.2022 yildagi PF-60-son
3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. - Toshkent: Fan, 1997.-182b.

4. Ashrapova T., Odilova M. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 1984.
5. Ma'qulova B. Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. T., "O'qituvchi", 1996- yil.
6. Abdullayeva Q. Birinchi sinfda nutq o'stirish. - Toshkent, "O'qituvchi", 1980.
7. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J.. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun darslik-majmua. T.: Sharq, 2013yil.
8. Musaev A. **TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT** //International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 1. - C. 146-149.
9. Musaev A. **TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT** //International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 1. - C. 146-149.
10. Irisbayeva Y. Using" Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. - 2018. - №. 6.
11. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. - 2019. - №. 1.
12. Irisbayeva Y. **PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE**